



## The relevance of the concept of nation in globalization processes

Nargiza SEYDABULLAEVA <sup>1</sup>

Berdakh Karakalpak State University

### ARTICLE INFO

#### *Article history:*

Received September 2025

Received in revised form

5 September 2025

Accepted 10 October 2025

Available online

25 October 2025

#### *Keywords:*

globalization,  
nation,  
self-awareness,  
material,  
spiritual values,  
human factor,  
spirituality.

### ABSTRACT

This article examines scholars' perspectives on the concept of the nation and the processes by which nations form, as well as the importance of preserving the nation amid contemporary globalization.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss10/S-pp69-101>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Globallashuv jarayonlarida millat tushunchasining dolzarbligi

### ANNOTATSIYA

#### *Kalit so'zlar:*

globallashuv,  
millat,  
o'zlikni anglash,  
moddiy,  
ma'naviy boyliklar,  
inson omili,  
ma'naviyat.

Maqolada millat tushunchasi uning shakllanish jarayonlari haqida olimlar fikrlari va bugungi kundagi globallashuv sharoitida millatni asrash masalasining dolzarbligi ochib berilgan.

<sup>1</sup> Acting Associate Professor, Department of Political Science and Fundamentals of Spirituality, Berdakh Karakalpak State University  
E-mail: [nargiza.seydabullaeva@bk.ru](mailto:nargiza.seydabullaeva@bk.ru)

## Актуальность понятия нации в процессах глобализации

### АННОТАЦИЯ

**Ключевые слова:**

глобализация, нация, самосознание, материальные и духовные богатства, человеческий фактор, духовность.

В статье раскрываются мнения ученых о понятии нации и процессах ее формирования, а также актуальность вопроса сохранения нации в современных условиях глобализации.

### KIRISH

Globallashuv insoniyat taraqqiyotining XXI asrdagi yuksak bosqichi sifatida tarix zarvaraqlaridan o'rin olmoqda. U bugungi kunda nafaqat fan, texnika va texnologiyaning yuksak darajada rivojlanishi va uning butun ro'yi zaminda ommaviylashuvining ifodasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuning bilan birga, u insonlar va millatlar hayotida ham tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Bu o'zgarishlar, bir tomondan, insoniyat hayot sur'atlarining tezlashuvi va rivojlanishida ko'rinayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, millatlar va uning ijodkori bo'lgan insoniyat istiqbolining barbod bo'lish xavfini kuchaytirayotganida ham o'z ifodasini topmoqda.

Uning xarakterli xususiyati shundaki, u mustaqil moddiy borliq emas, balki real moddiy omillar vositasida borliqqa aylanayotgan jarayondir. Xususan, u fan, texnika va texnologiyaning yuksak darajada taraqqiy qilishi hamda uning jahonda jadal sur'atlarda ommaviylashuvi ifodasi sifatida moddiy borliqqa aylanmoqda. Bugun uning insoniyat, millat va jamiyat hayotining ta'sir o'tkazmaydigan bironta sohasi qolmadi. Uning ta'sirida bir qator yuksak darajada taraqqiy qilgan mamlakatlar yana rivojlanmoqda, ularda yashayotgan xalqlarning farovonligi oshib bormoqda. Ayni paytda, ular o'zlarining moddiy imkoniyatlari, fan, texnika va texnologiya sohasida erishgan yutuqlari bilan endi taraqqiyot yo'liga kirib borayotgan yoki taraqqiyotdan orqada qolgan mamlakatlar va ularda yashayotgan xalqlarni o'ziga qaram qilishga erishmoqdalar. Ular bu xalqlarning o'z ichki resurslarini yuzaga chiqarish yo'li bilan taraqqiy qilishiga ham imkoniyat qoldirmayaptilar. Ya'ni, globallashuvning tobora jadallashuvi yuksak taraqqiy qilgan va undan orqada qolayotgan mamlakatlarning hech birini o'z ta'siridan chetda qoldirmaydigan jarayondir.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Ilmiy adabiyotlarda globallashuv tushunchasiga turli qarashlar shakllandi, ularda mualliflarning biri ularga jarayon sifatida qarasa, yana biri dunyoning bir butun holatga kelishini anglatuvchi omil sifatida qaraydi. Albatta, globallashuv tushunchasiga turlicha qarashlarning mavjudligi tabiiy holat. Chunki u keng qamrovli tushuncha bo'lib, mualliflar uning turli qirralarini o'z qiziqishlari nuqtai nazarlarida qaraydilar. Shuning bilan bir vaqtda globallashuvning insoniyat taraqqiyoti istiqboliga o'tkazadigan ta'sirining oqibatlarini oxirigacha o'rganilmagan, faqat bugungi kunda uning ayrim qirralarigina o'rganilgan, xolos. Bu jarayonni mukammal o'rganishda Birinchi

Prezidentimiz Islom Karimovning globallashuv haqida bildirgan quyidagi fikrlari metodologik asos bo'la oladi. U shunday yozadi: «...Globallashuv – bu, avvalo, hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir» [1]. Ana shu fikrga asoslanib, globallashuvning taraqqiyotga ijobiy va salbiy ta'sirlari masalasida ham yagona fikr shakllanmaganligini hisobga olgan holda uni o'rganish dolzarb vazifa bo'lib turibdi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)**

Biz globallashuvga jarayon sifatida qaraymiz va ayni paytda uning mavhum tushuncha ekanligini e'tirof etgan xolda fan, texnika, texnologiyaning hozirgi zamon nuqtai nazaridan yuksak darajada taraqqiy etganligi va jahonda jadal ommalashib ketishi bilan moddiy borliqqa aylanayotganini nazarda tutamiz.

Bir tomondan, globallashuv jarayonida yetakchilik qilayotgan mamlakatlar yagona kuch bo'lib birlashganda «ommaviy ma'naviyat»ni shakllantirib, uni dunyoga ommalashtirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan taraqqiyot yo'liga kirib borayotgan millatlarning ma'naviyatlari ular ta'siriga tushib, tobora qashshoqlashib bormoqda. Ayniqsa, bu jarayon milliy ong va milliy o'zlikni anglashning susayib borishiga o'zining ta'sirini o'tkazmoqda. Ularning tobora susayib borishi esa, oxir-oqibatda millatning real subyekt sifatida barbod bo'lishiga olib kelish xavfini yuzaga keltirmoqda.

### **TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)**

Globallashuv tasodifiy hodisa emas, balki insoniyat taraqqiyotining obyektiv qonuniyatidir. Shu ma'noda uning yuzaga kelishi va rivoji inson xohish-irodasining emas, balki tarixiy taraqqiyotning yuksak darajaga ko'tarilish ifodasidir. Ammo bu globallashuv inson faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan jarayon degani emas. Zero, globallashuv bir tomondan, insoniyat taraqqiyotidagi obyektiv jarayon bo'lsa, ikkinchi tomondan, insonlarning o'sib kelayotgan ehtiyojlarini qondirishning zaruriy omili hamdir.

Dunyoning ko'zga ko'ringan nazariyotchilari, ekspert va mutaxassislari globallashuvni iqtisodiyotda kechayotgan jarayon sifatida qarab kelmoqdalar. Jumladan, iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori, Kolumbiya universiteti professori (AQSh) Jozef Stiglits, AQShning taniqli faylasufi va sotsiologi Frensis Fukuyama, shu mamlakat prezidentining sobiq yordamchisi, taniqli sotsiologi Zbignev Bzejnskiy, iqtisodiyotni Bombay, Kembrij, Oksford, Kolumbiya universitetlari va Massachuset texnologiya institutida o'rgangan globallashuv bo'yicha ekspert, dunyoning yetakchi iqtisodchilaridan biri Jagdish Bxagvati va boshqa bir qator iqtisodchilar globallashuvni jahon iqtisodiyotida sodir bo'layotgan jarayon sifatida qaraydilar. Shu bilan birga globallashuvni siyosat va davlatchilik bilan bog'lab qaraydiganlar ham bor. Ular jumlasiga globallashuvni o'rganuvchi Yel markazi eksperti Mark Sirvel, J.Kennedi nomidagi Garvard universitetining siyosat maktabi institutining direktori o'rinbosari Devid King, rossiyalik yetakchi analitik, «Siyosat» jamg'armasi prezidenti Vyacheslav Nikonov va boshqalarni kiritish mumkin[2].

Ulardan Jozef Stiglitsning fikri quyidagicha: «Globallashuv insonlar hayotini yaxshilashning eng yaxshi potensialidir, shu jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlar

aholisi yaxshilanmoqda. Uning ayrim yo'nalishlari hozirning o'zida, masalan, ilmning globallashuvi sog'liqni saqlash, insonlarning umrini uzaytirishga olib keldi» [3].

Globallashuvning inqilobiy mohiyati haqida fikr yuritar ekanmiz, uning qachondan beri amal qilib kelayotgani haqida ham to'xtalib o'tish joiz. Avvalo, ta'kidlash lozimki, globallashuvning boshlanish davri haqida ham turli fikr bildirilmoqda. Jumladan, G'arb olimlaridan R.Kobden va J.Brayt globallashuv to'liqlarini mamlakatlar o'rtasida erkin savdoning amalga oshuvi va uning natijasida iqtisodiyotdagi o'sish bilan bog'laydilar hamda uning boshlanishini XIX va XXasr bilan chegaralaydilar. Ularning fikricha, Britaniya o'zining dengiz, industriya va moliyaviy qudrati bilan globallashuv to'liqining birinchi bosqichi kafolati bo'lgan. Uning ikkinchi bosqichi esa 1970-yillarning oxirlarida informatika va telekommunikatsiyada sodir bo'lgan inqiloblar asosida boshlangan[4].

Ayni paytda globallashuvning dunyo miqyosida qarama-qarshiliklarga ta'siri g'oyasini N.Eyndjel o'zining 1909-yilda yozgan "Buyuk xamxayol" nomli asarida asoslab berdi.

O'zbek olimlaridan biri, filologiya fanlari doktori, professor Muhammadjon Xolbekovning fikricha, "Insoniyat XXI asrga qadam qo'yishi bilan bu atamaga moyillik sezildi va u hayotimizdan mustaqil o'rin oldi...Miloddan oldingi IV asrda yunon sarkardasi makedoniyalik Aleksandr butun Osiyoni qurol kuchi bilan zabt qilib, aslida yarim dunyoni birlashtirmoqchi, qudratli davlat barpo etmoqchi bo'lgan va shu tariqa insoniyat tarixida globallashuv jarayonini boshlab bergan. Yoki miloddan avvalgi I asrda Rim imperatori Yuliy Sezar ham huddi shunday yo'l tutib, butun Yevropani ishg'ol qilgan va qudratli imperiya sarhadlarini kengaytirgan.

Professor Ochildiev globallashuvning ildizlarini XV-XVII asrlar bilan, uning yangi ijobiy xarakter kasb etishini esa XX asr bilan bog'laydi va bu haqida shunday yozadi: «Bugun o'zini yorqin namoyon qilayotgan globallashuv bir necha asrlik ildizlarga ega. XV-XVIIasrlardagi geografik kashfiyotlar ko'plab mamlakatlarda va mintaqalarning xalqaro savdo doirasiga tortilishiga, sanoat revolyutsiyasi esa umumiy aloqalarning yanada kuchayuvchi, keng qamrovli kasb etishiga iqtisodiy zamin yaratgan edi. Keyingi davrlar bunday munosabatlar yana da chuqurlashib bordi. XX asr boshlariga kelib yangi sifatli xarakter kasb etgan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olgan mazkur jarayon globallashuv tushunchasi orqali ifodalana boshlandi» [5].

Baxodir Umarovning fikricha, «... Globallashuv jarayoni boshlanadigan aniq bir tarixiy davr va makonni ajratib ko'rsatish qiyin. Negaki, nazariy jihatdan qaraganda tarixiy taraqqiyot hususiyatlaridan qat'iy nazar, xalqaro mexnat taqsimoti tizimiga uyg'unlashib borayotgan, horijiy sarmoyalarni o'z iqtisodiyotiga izchil jalb etayotgan hamda zamonaviy texnologiyalar sari intilayotgan har qanday mamlakat uchun globallashuv jarayoni tufayli vujudga kelgan iqtisodiy afzalliklardan foydalanish imkoniyati tug'ildi...»[6].

Yuqoridagi fikrlarimizga asoslanib, globallashuv jarayonining butun insoniyat va ayniqsa, millatlar hayotiga o'tkazayotgan ta'sirining mezonini anglab yetish uchun uning kuch-quvvatini millatlar hayotini batamom o'zgartirib yuborgan inqiloblar bilan tenglashtirish mumkin. Buning uchun eng avvalo globallashuv ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy mazmunlarga ega bo'lib, uni jarayon yoki hodisa sifatida qaraganda nima o'zgaradi, bu tushunchalarning mazmuni nimalarda o'z ifodasini topadi, degan savolga javob izlashimiz lozim. Jarayon hodisa bilan uzviy bog'liq. Agar hodisa obyektiv borliqning tez o'zgaruvchan tashqi tomonini ifoda etdirsa, jarayon hodisaga nisbatan passiv jihatini o'zida ifoda etadi va ayni paytda hodisa jarayonning moddiy borliqdagi ifodasi hamdir. Jarayon tabiat, jamiyat va insoniyat hayotida kechadigan hodisa bo'lganligi uchun ham ulardagi obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida o'zgarib boradi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMENDATIONS)**

Globallashuv millatlarning o'zligidan begonalashuviga o'zining ta'sirini bugunning o'zidayoq o'tkazmoqda. Bugun bu jarayondagi jiddiy xavf shundaki, millatlar iqtisodiy taraqqiy etishi, farovonligi oshib borishi jarayonida o'zlarining milliy qiyofalarini asrash o'rniga ularning tobora xiralashib borayotganligini anglab yetishda orqada qolmoqdalar. Bugun globallashuv milliy taraqqiyotga qanchalik ijobiy ta'sir o'tkazayotgan bo'lsa, uning ma'nan halok bo'lishiga undan da ko'proq ta'sir o'tkazmoqda. Bugun insoniyat globallashuvning ijobiy imkoniyatlaridan foydalanib, o'zini asrashning asosiy omillaridan biri bo'lgan millatni asrash zarurligini anglab yetadimi yoki uning tobora olomonga aylanishiga befarq bo'lib boraveradimi degan o'ta qaltis muammoga ro'para bo'lib kelmoqda. Millatning, yana odamlarning dastlabki to'dasi bo'lgan olomonga aylanishi muqarrar ravishda millatning ma'nan o'lishiga olib keladi. Bunda globallashuvning millat taraqqiyotiga o'tkazayotgan ijobiy ta'siri bir chaqaga arzimaydigan omil bo'lib qolaveradi. Bugun millatning qudrati nafaqat zamonaviy texnika, texnologiya, fan, turli ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirish, rivojlangan mamlakatlardagi yutuqlarini o'zlashtirish va ulardan samarali foydalanib, farovonlikka erishishda, shuning bilan birga, ulardan o'zini asrashi bilan ham belgilanadi. Ularga nisbatan faqat bir tomonlama qarab, uning millatni ma'nan halokatga mahkum etadigan imkoniyatlarini anglab yetmas ekan, insoniyat o'zi bu borada erishgan yutuqlarining qurboniga aylanishi mumkin. Shu ma'noda ham globallashuvni millatni asrash omiliga aylantirish bugun insoniyat oldida yuzaga kelayotgan o'ta dolzarb vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: "Ma'naviyat", 2008. - 111-b.
2. Uzbekistan Central Asia. – Центр политических исследований. Информационно-аналитический Бюллетень. IX-2007. - С.42-45.
3. Глобалистика: международный междисциплинарный энциклопедический словарь. - Москва – Санкт Петербург - Нью-Йорк, 2006. - С.163

4. Xolbekov M. Adabiyotda globallashuv. // Tafakkur, 2006.№4. – 20-23-bb.
5. Ochildiev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. -T.: Muxarrir,2009. – 64-b.
6. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari:iqtisodiy,ijtimoiy va ma`naviy jihatlari. -T.: Ma`naviyat,2006. -7-b.